

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

MANSUROVA NARGIZA SHAMSIDINOVNA

**YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR TURIZMNI
SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по экономическим наукам**

**Table of contents of the abstract for the doctoral dissertation (DSc) in
economic sciences**

Mansurova Nargiza Shamsidinovna

Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....3

Мансурова Наргиза Шамсидиновна

Совершенствование методологических основ эффективного развития устойчивого туризма в условиях зеленой экономики35

Mansurova Nargiza Shamsidinovna

Improvement of methodological foundations for the effective development of sustainable tourism in the period of green economy 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 74

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

MANSUROVA NARGIZA SHAMSIDINOVNA

**YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR TURIZMNI
SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/Iqt812 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Arabov Nurali Uralovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Abdurahmonov Qalandar Xadjayevich**
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mirzayev Abdullajon Topilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 26 aprel soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (998 80) 725-89-07; Faks:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (27-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 07 aprel kuni tarqatildi
(2025-yil 07 apreldagi 27-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Eshtayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, i.f.n., dotsent

B.Sh.Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yashil iqtisodiyot sharoitida turizm jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmoqlardan biriga aylangan. Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yilda turizm sohasi qo'shimcha 27,4 million yangi ish o'rnini yaratib, dunyo bo'yicha taxminan 348 million ish o'rnini ta'minlagan, dunyo bo'ylab 1,4 milliard xalqaro sayyoh qayd etilgan hamda turizmdan tushgan eksport daromadlari 1,9 trillion AQSh dollarini tashkil etgan"¹. Bu borada, "turizmning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) qo'shgan hissasi 2024-yilda 11,1 trillion AQSh dollariga yetgan bo'lib, bu jahon YaIMining 10 foiziga teng"². Bu ko'rsatkichlar turistik destinatsiyalarning ekologik holatiga, barqaror iqtisodiy o'sish hamda global turizmning barqaror rivojlanish jarayonidagi ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sirini aks ettiradi. Shu bois, barqaror turizmni rivojlantirish jarayonida ekologik muammolarni hal etish tendensiyasi nafaqat turistlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, balki hududlar iqtisodiyotining o'sishini rag'batlantirishda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda yashil iqtisodiyot sharoitida turizm salohiyatiga ega hududlarda sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillarni takomillashtirish, ekologik talablarga javob beradigan modellarni ishlab chiqish va mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan metodologiyani takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, barqaror turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, metodologik yondashuvlarni asoslash, soha subyektlari uchun barqarorlik strategiyalarini ishlab chiqish, turistik mahsulot va xizmatlarni ekosertifikatlashning metodik asoslarini takomillashtirish, yangi turistik marshrutlarni yaratish va rekreatsion hududlarda turistik so'qmoqlarni ko'paytirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, turizm industriyasidagi statistik ma'lumotlarni aniq vaqt rejimida olish imkonini beruvchi elektron platformasini ishga tushirish hamda ekonometrik modellardan foydalangan holda istiqbolli ko'rsatkichlarini bashoratlash kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq ushbu yo'nalishda shaffoflik darajasini tubdan oshirish hamda mamlakatimizning mavjud resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga barqaror turizmni samarali rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Biz 2025-yilga mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili deb nom berdik. Asosiy maqsadimiz – inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratishdir"³, "72 ta sohil bo'yi dam olish maskanlari, tunu kun ishlaydigan 154 ta turizm va gastronomik ko'chalarni tashkil

¹ UN-Tourism. Jahon turizm barometri. 2024, from <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

²World Travel & Tourism Council (WTTC). (n.d.). Economic Impact Research. 2024, from <https://wtcc.org/research/economic-impact>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-yanvardagi "O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi" / <https://president.uz/uz/lists/view/7799>

etish, 62 ta istirohat bog'ini zamonaviy qiyofaga keltirish, 364 ta yo'l bo'yi va boshqa servis obyektlarini barpo qilish lozim"⁴. Ushbu vazifalarning bajarilishi yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirish, turizm sohasinig ekologik talablarga javob beradigan modellarini ishlab chiqish, baholash usullarini takomillashtirish, hududlarda barqaror turizm infratuzilmasini tashkil etish, ekologik standartlar bo'yicha turizm va mehmonxona xizmatlarini diversifikatsiya qilish uchun xalqaro tajribalar asosida ekosertifikatlar va ekomarkirovkalarni joriy etish usullarini asoslash, statistik axborot almashinuvi tizimini yo'lga qo'yish, turistik so'qmoqlarni qabul qiladigan o'zgarishlar chegarasini hisoblash, ekonometrik usullar orqali barqaror turizmni rivojlantirishning istiqbolli parametrlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁵.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁶. Jahonda yashil iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlar bozorini barqaror rivojlantirish,

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-fevraldagi "Xizmat sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi"/ <https://president.uz/uz/lists/view/7863>

⁵ <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

⁶Dissertatsiya ishida quyidagi xorijiy ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanilgan UN Tourism and UNEP, Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030. 17 Jan, 2018. -114 p. [Online Resource]. URL: <https://www.e-unwto.org/doi/epdf/10.18111/9789284419401>; Wyman O. To Recovery & Beyond: The Future of Travel & Tourism in the Wake of Covid-19. World Travel & Tourism Council. September 2020. – 46 p. URL: <https://wtcc.org/initiatives/to-recovery-beyond>; World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, sustainable development goals. World Health Organization. Luxemburg – 2020. -86 p. <https://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/272596/9789241565585-eng.pdf>; Методологическое пособие

turizm sohasiga innovatsion ekotexnologiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish, ekologik xizmatlarni ko‘rsatish uchun kadrlar tayyorlash amaliyotini takomillashtirish, hududlarda barqaror turizm salohiyatini oshirish, resurslaridan oqilona foydalanish amaliyotini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar, xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tashkilotlar, shuningdek, jahon va mamlakatimizning yetakchi oliy o‘quv yurtlari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm bo‘yicha Ixtisoslashgan agentligi (UN Tourism), BMTning Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO), Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN), Xalqaro ekoturizm jamiyati (The International Ecotourism Society – TIES), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development – OECD), Turizm va mehmonxona xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot markazi (International Centre for Tourism and Hospitality Research – ICTHR), Bornmut universiteti (Buyuk Britaniya), Konstanz universiteti (Germaniya), Bokoni universiteti (Italiya), Melburn universiteti (Avstraliya), Beyjing universiteti (Xitoy Xalq Respublikasi), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro davlat universitetlari (O‘zbekiston Respublikasi) bilan keng ko‘lamdagi tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirishga oid tadqiqotlar jarayonida quyidagi ilmiy natijalar olingan: global barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG) ilgari surish orqali turizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga oid takliflar ishlab chiqilgan (UN), turizm sohasida barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro siyosatni shakllantirish, ekoturizm standartlarini belgilash hamda turistik resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan (UN Tourism), madaniy merosni saqlash va ekoturizmni rivojlantirish jarayonida ta‘lim va ilmiy tadqiqotlarni integratsiya qilish zarurligi dalillangan (UNESCO), ekoturizmni rivojlantirishda biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish zarurligi dalillangan (IUCN), turizmni rivojlantirishda barqaror tamoyillarni qo‘llash va ekologik ongni oshirishning ahamiyati asoslangan (TIES), sohaga “yashil” investitsiyalarni jalb qilish hajmini oshirish bo‘yicha takliflar asoslangan (WB), turizm xizmatlarini rivojlantirishda yashil texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni joriy etishning ahamiyati asoslangan (OECD), barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishning ilmiy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan hamda ularning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari asoslangan (Bornmut universiteti, Buyuk Britaniya), barqaror turizm rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan (Konstanz universiteti, Germaniya), turistik hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri baholangan (Bokoni universiteti, Italiya), barqaror turizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlari

«Адаптация объектов сельского и экотуризма к последствиям пандемии Covid-19. Аналитика и успешные практики Европы и России» - Москва: АНО «АРСИ», Экоцентр «Заповедники», 2022. – 108 с.; Center for Responsible Travel Transforming the Way the World The Case for Responsible Travel [Electronic source] // Trends and Statistics Stanford University & Washington, DC. – URL: www.responsibletravel.org; Концептуальная записка: Covid-19 и перестройка сектора туризма. ООН. Август -2020 г.

integratsiyalashgan holda rivojlanish modeliga ilmiy asoslar yaratilgan Melburn universiteti (Avstraliya), “Smart Tourism Data System” laboratoriyasini tashkil etish asosida turizm bilan bog‘liq statistik ma’lumotlarni aniq vaqt rejimida olish imkoniyatini beruvchi “Sustainable tourism” statistika platformasini ishga tushirish bo‘yicha takliflar asoslangan Beyjing universiteti (Xitoy Xalq Respublikasi), hududlarning rekreatsion salohiyatini oshirish hamda barqaror turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand davlat universiteti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston Respublikasi).

Barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha jahon miqyosida quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: energiya va resurslarni tejoychi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitga antropogen ta’sirni minimallashtirish, turizmning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini chuqur tahlil qilish, sohadan olinadigan daromadlar samaradorligini oshirish hamda turizm sektori uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash. Ushbu tadqiqotlar turizmning barqaror rivojlanish modelini shakllantirish va barqaror turizm siyosatini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Barqaror turizmni rivojlantirish va uning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator iqtisodchi va ekolog olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, D.B.Veaver, C.M.Hall, Djinbo Szyan, Shenchao Li, Sara Dolnicar, Jafar Jafari, Pauline Sheldon, Geoffrey Wall, O.V.Pirogova, A.Yu.Pirogova, Ye.M.Maksarova⁷ kabi olimlar barqaror turizmning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganib, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilgan.

Mamlakatimizda ham turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalariga bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan, Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, N.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, B.X.To‘raev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, N.S.Ibragimov, U.R.Matyakubov, A.T.Mirzayev, M.T.Alimova, Ye.V.Golisheva, A.A.Qodirov, S.Sh.Xalilov N.N.Safarova, N.A.Rahimova⁸ va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

⁷ D.B. Weaver *Tourisation Theory and the pandiscipline of tourism* // *Journal of Travel Research*. 2022. T. 62. № 1. C. 259–265., C.M. Hall, Gossling S., Scott D. *The Routledge Handbook of Tourism and Sustainability*. Routledge, 2015, Jinbo Sian, Shenchao Li, va Yi Guo “Barqaror turizm siyosati tadqiqoti sharhi”. “Barqarorlik” (Sustainability) jurnali, 2019-yil. 11(11), <https://www.mdpi.com/2071-1050/11/11/3187>; Dolnicar S. Can eco-certification standardize sustainable tourism? // *Journal of Sustainable Tourism*. 2018. Vol. 26, №10. www.researchgate.net/publication/283849335_Does_eco_certification_sell_tourism_services_Evidence; Jafari J., Ritchie J. R. B. *Toward a framework for tourism education* // *Annals of Tourism Research*. 1981. T. 8. № 1. C. 13–34, Sheldon P.J. *Conference Report: Sustainability and Mass Destinations* // *Annals of Tourism Research*. 2005. Vol. 32, No. 3. Pp. 811-813. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.annals.2004.10.007>; Wall G. “Tourist Attractions: Points, Lines, and Areas” // *Annals of Tourism Research*. 1997. Vol. 24, No. 1. Pp. 240-243. DOI: [https://doi.org/10.1016/S0160-7383\(96\)00039-4](https://doi.org/10.1016/S0160-7383(96)00039-4); Пирогова О.В. Пирогова А.Ю. Роль устойчивого туризма в мире // *Межд. жур. приклад. и фундамент.-х исследований*. - 2017, №7-2,-с.305-309. <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=11743>; Максарова Е.М. Основные направления реализации принципов устойчивого развития в туризме//ж. Экономика, право, 2008, с.346. <https://e.twirpx.link/file/482976/>

⁸ Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма // учебное пособие. – Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. – O‘zbekiston milliy ensiklopediasini, 2006., Tuxliev I.S., Qudratov G‘.X., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish // *Darslik*. -T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2010. – 238 b., Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing

Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda mamlakatimizda barqaror turizm bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar yetarlicha emas. Ayni paytda, mavjud ilmiy ishlarda asosan ekologik turizmga oid masalalar chuqurroq o'rganilgan bo'lib, barqaror turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlari yetarlicha tahlil qilinmagan. Shu sababli, barqaror turizmning keng qamrovli tamoyillarini o'rganish, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini baholash hamda sohaga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish zarurati mavjud.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda barqaror turizmni rivojlantirishning metodologik jihatlari yetarlicha yoritilmagan. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori bo'lib, bu mavzuni alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlash zaruratini yuzaga keltiradi hamda uning dolzarbligini yanada oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot amalga oshirilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohalarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

barqaror turizmni samarali rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan tadqiq etish;

"yashil iqtisodiyot" va "barqaror turizm" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy tahlil qilish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

strategiyasi. // T.: Fan, 2011. T. 1. № 1. 280 b., Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. // T.: Fan va texnologiya, 2016. T. 1. № 1. 184 b., Xamidov O.X. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. - 260 b., Typaev B.X. Организационно-экономические механизмы регионального туризма // Ташкент: Фаъ, 2009. Т. 1. № 1. С. 153., Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2019. 68 b., Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2021. – 246-b., Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash // dis. ... i.f.n. Buxoro, 2006. T. 1. № 1. 183 b., Matyakubov U.R. Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – Urganch, 2022. – 78 b., Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – T.:, 2021. 68 b., Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // dok. dis.... Samarqand: SamISI, 2017. T. 1. № 1. 265 b., Гольшева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях // дис. ... канд. экон. наук. Ташкент, 2012.

Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil 22-iyun., Safarova N.N. Turizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari // Monografiya. T.. IFMR nashriyoti. 2017. – 220 bet., Amonboyev M., Khalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi // o'quv qo'llanma – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 96 b. – ISBN 978-9943-7661-7-4., Raximova N.N. Hududda barqaror turizmni boshqarish mexanizmini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida) // iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2024. – 203 b.

xalqaro turizmning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va zamonaviy rivojlanish yoʻnalishlarini tadqiq etish;

barqaror turizmni samarali rivojlantirish xususiyatlari, usullari va vositalarini aniqlash;

yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning xorij tajribasini tadqiq etish;

barqaror turizmnining samarali rivojlanishini baholash usullarini aniqlash;

hududlarda turizmni barqaror rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish;

hududlarda barqaror turizm rivojlanishida mahalliy aholi rolini oʻrganishning uslubiy jihatlarini ilmiy asoslash;

respublikada turizm sohasi rivojlanishining holati va omillarini tahlil qilish;

yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash;

barqaror turizmni rivojlantirishda mahsulot va xizmatlarni ekoserifikatlash mexanizmini takomillashtirish;

milliy turizm industriyasining oʻrta muddatli istiqbolda rivojlanishiga oid ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqish;

mamlakatimizda barqaror turizmni samarali rivojlantirish istiqbollari boʻyicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat koʻrsatayotgan xoʻjalik yurituvchi subyektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bogʻliq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada taqqoslash, tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, regression-korrelyatsion tahlil va ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mamlakatimizning mavjud turistik resurslar salohiyatidan kelib chiqqan holda turistik soʻqmoqlarni belgilangan talablar darajasida saqlash majburiyatini belgilash asosida ruxsat etilgan yuklamani hisoblash, atrof-muhitga taʼsirni baholash va turistik destinatsiyaning samarali ruxsat etilgan sigʻimlilik darajasini aniqlash uchun “Turistik soʻqmoqlar”ni qabul qiladigan oʻzgarishlar chegarasi modelini amaliyotda foydalanishi boʻyicha afzalliklari dalillangan;

barqaror rivojlanish tamoyillarini targʻib qilish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida “ Inson resurslarini yashil boshqarish” (GHRM) konsepsiyasi asosida resurslardan oqilona foydalanish, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, atrof-muhit bilan uygʻunlikni taʼminlash hamda barqaror turizmni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan “Yashil maqsadlar”ning takomillashtirilgan mezonlari ilmiy asoslangan;

barqaror turizmni samarali rivojlantirishning axborot-analitik bazasini shakllantirishga yoʻnaltirilgan “Ipak yoʻli” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzurida “Smart Tourism Data System” laboratoriyasini tashkil etish

asosida turizm bilan bog‘liq statistik ma‘lumotlarni aniq vaqt rejimida olish imkoniyatini beruvchi “Sustainable tourism” statistika platformasini ishga tushirish bo‘yicha takliflar asoslangan;

hududlarda barqaror turizmni rivojlantirish, yashil iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq ekologik sertifikatlash tizimini joriy etish va xizmatlar sifatini oshirishga yo‘naltirilgan “Green Travel” standartlashtirish va ekosertifikatlash tizimini yaratish negizida barpo etiladigan mehmonxona, joylashtirish vositalari va boshqa turistik obyektlarga ekosertifikatlash va ekomarkirovkadan foydalanishning takomillashtirilgan modeli afzalliklari dalillangan;

mamlakatimizda barqaror turizmni samarali rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarning tahlili asosida xorijiy turistlar oqimining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mamlakatimiz hududlarida yangi turizm industriyasi obyektlarini ko‘paytirish orqali qulay sayohat qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida turistik obyektlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash hamda mehmondo‘stlik xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan sertifikatlashtirish talablariga rioya qilinishini ta’minlashga qaratilgan tartib ishlab chiqish asosida respublika hududlarida 2 milliondan ortiq xorijiy turist tashrifini tashkil etish hamda mehmonxonalarni ekosertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar asoslangan;

barqaror turizmni samarali rivojlantirish tizimi ekoturizm va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, mahalliy aholi bilan hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish hamda “Yashil infratuzilmani” shakllantirish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani yaratishni ushbu sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tamoyillar asosida takomillashtirish taklifi asoslangan;

Samarqand viloyatidagi “Hazrati Dovud” g‘ori atrofidagi mahalliy aholining bezovtalik va norozilik darajasi turizmning rivojlanishi hamda uning qabul qilinish bosqichlarini hisobga oluvchi “Irritatsiya indeks”lari asosida baholanib, natijalar asosida ushbu hududda mahalliy aholining bezovtaligini kamaytirishga qaratilgan model ishlab chiqilgan;

barqaror turizmni samarali rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari tahlil qilinib, ularni mamlakatimiz yashil iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish va milliy modelini ishlab chiqish usuli amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasining rasmiy ma‘lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism), Xalqaro iqtisodiy forum (WEF), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida barqaror turizm tutgan o‘rnini belgilash hamda yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirish xususiyatlarini aniqlash, bu jarayonni metodologik asoslarini takomillashtirish va davlat qarorlarini qabul qilishda qo‘llash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari barqaror turizmni rivojlantirish uchun iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va metodologik-uslubiy asoslarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy manba sifatida foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirish metodologik asoslarini takomillashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish va sohaning jozibadorligini oshirish bo‘yicha takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mamlakatimizning mavjud turistik resurslar salohiyatidan kelib chiqqan holda turistik so‘qmoqlarni belgilangan talablar darajasida saqlash majburiyatini belgilash asosida ruxsat etilgan yuklamani hisoblash, atrof-muhitga ta’sirni baholash va turistik destinatsiyaning samarali ruxsat etilgan sig‘imlilik darajasini aniqlash uchun “Turistik so‘qmoqlar”ni qabul qiladigan o‘zgarishlar chegarasi modelini amaliyotda foydalanish afzalliklari bo‘yicha dalillangan taklifi 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “Tabiatga sayohat” ekoturizmni rivojlantirish milliy dasturiga kiritilgan (Turizm qo‘mitasining 2025-yil 1-martdagi 03-10-17-1873-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarning ekologik yuklamasini aniq hisoblash va ruxsat etilgan sig‘imlilik darajasini belgilash orqali tabiiy resurslardan barqaror foydalanish 5%ga oshgan, atrof-muhitga zararli ta’sir 3%ga kamaygan;

barqaror rivojlanish tamoyillarini targ‘ib qilish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida “Inson resurslarini yashil boshqarish” (GHRM) konsepsiyasi asosida resurslardan oqilona foydalanish, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, atrof-muhit bilan uyg‘unlikni ta’minlash hamda barqaror turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Yashil maqsadlar”ning takomillashtirilgan mezonlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflari 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash” bo‘yicha “Harakatlar rejasi”ga kiritilgan (Turizm qo‘mitasining 2025-yil 1-martdagi 03-10-17-1873-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm subyektlarining ekologik va iqtisodiy samaradorligi 10%ga oshishiga erishildi;

barqaror turizmni samarali rivojlantirishning axborot-analitik bazasini shakllantirishga yo'naltirilgan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzurida "Smart Tourism Data System" laboratoriyasini tashkil etish asosida turizm bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni aniq vaqt rejimida olish imkoniyatini beruvchi "Sustainable tourism" statistika platformasini ishga tushirish bo'yicha asoslangan taklifi 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son "2024-2025-yillarda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan hududlarda turizmni rivojlantirishga ko'maklashish" bo'yicha "Chora-tadbirlar rejasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 1-martdagi 03-10-17-1873-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni aniq vaqt rejimida olish imkoniyatini beruvchi "Sustainable tourism" statistika platformasini ishga tushirish orqali ma'lumotlar bazasining samaradorligini 15%ga oshirishga imkon yaratadi;

hududlarda barqaror turizmni rivojlantirish, yashil iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq ekologik sertifikatlash tizimini joriy etish va xizmatlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan "Green Travel" standartlashtirish va ekosertifikatlash tizimini yaratish negizida barpo etiladigan mehmonxona, joylashtirish vositalari va boshqa turistik obyektlarga ekosertifikatlash va ekomarkirovkadan foydalanish takomillashtirilgan modeli afzalliklari bo'yicha taklif 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "Tabiatga sayohat" ekoturizmni rivojlantirish milliy dasturiga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 1-martdagi 03-10-17-1873-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda barqaror turizm rivojlanishi jadallashib, yashil iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq ekosertifikatlash tizimi takomillashadi hamda turistik obyektlarda ekologik standartlarga rioya qilish samaradorligi 12%ga oshgan;

mamlakatimizda barqaror turizmni samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning tahlili asosida xorijiy turistlar oqimining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2025-2030-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 1-martdagi 03-10-17-1873-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizda barqaror turizmga bo'lgan talabni aniqlash orqali xorijiy turistlar sonining 30%ga oshishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 13 ta ilmiy maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta ilmiy monografiya nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 240 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni rivojlantirishning nazariy-ilmiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlar nazariy jihatdan tahlil qilinib, “yashil iqtisodiyot” va “barqaror turizm” kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan. Turli ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning bog‘liq tamoyillari aniqlangan. Barqaror turizmning o‘ziga xos xususiyatlari tasniflanib, rivojlantirish usullari va vositalari belgilangan hamda xorijiy tajriba ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan hamda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning xorij tajribasi o‘rganilgan.

Hozirgi davrda turizm sohasini barqaror rivojlantirish va uning izchil taraqqiyotini ta‘minlash masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur ilmiy asosda o‘rganilmoqda. Ushbu tadqiqotlarni nazariy jihatdan tahlil qilish jarayonida “yashil iqtisodiyot” va “barqaror turizm” tushunchalarini quyidagicha izohlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. “Yashil iqtisodiyot” – bu odamlarning farovonligini oshirish va kelajak avlodlarga ekologik xavflar yoki resurs tanqisligini yuklamasdan uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan ekologik va iqtisodiy faoliyat tizimidir”. “Barqaror turizm” – bu tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy ahvolni yaxshilash va madaniy merosni asrashni maqsad qilgan, uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan turizmdir”.

So‘nggi yillarda atrof-muhit muammolarini iqtisodiy, siyosiy, ekologik va ijtimoiy sohalarga keng qamrovli va kompleks yondashuvni ishlab chiqish, shu bilan birga, barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot elementlarini integratsiya qilish asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash hamda atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishga yo‘naltirilgan asosiy tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotimizda ushbu elementlarning (energiya samaradorligi, barqaror transport, “yashil” soliqlar va moliyaviy vositalar, suv resurslarini oqilona boshqarish, “yashil” o‘sish, yashil innovatsiyalar, “yashil” binolar) tasnifi tadqiq etilgan. Bu elementlar “yashil

iqtisodiyot”ning asosini tashkil etib, mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratadi.



1-rasm. Barqaror turizmni rivojlantirish tizimining tamoyillari, vositalari va tarkibiy elementlari⁹

Barqaror turizmning rivojlanishini taʼminlashda uning asosiy funksiyalari sifatida ekologik muhofaza va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash jarayoni dolzarb ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, barqaror turizmni rivojlantirishda

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi. Ushbu tamoyillar ekologik resurslardan samarali foydalanish, madaniy merosni asrash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda mahalliy jamoalarning ijtimoiy farovonligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, qashshoqlikni kamaytirish va qonunchilik va normativ talablarni bajarishni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar turizmni rivojlantirish orqali jamiyat manfaatlarini himoya qilish va kelajak avlodlar uchun barqaror muhit yaratishga xizmat qiladi.


Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy olimlar turizmning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni turli yondashuvlar asosida asoslaydilar. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, barqaror turizm iqtisodiy o'sish, ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq murakkab tizim bo'lib, uning samarali faoliyat yuritishi turizmning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro uyg'unligi va integratsiyalashgan yondashuv orqali rivojlantirilishiga bog'liq ekanligi ilmiy asoslangan (1-rasm).

O'zbekiston uchun barqaror turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida xalqaro ilg'or tajribalarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizmning barqaror rivojlanishi energiya samaradorligi, ekologik boshqaruv tizimlari, yashil infratuzilma hamda ekoturizm dasturlarini joriy etish bilan uzviy bog'liqdir.

Shu munosabat bilan, mamlakatimizda barqaror turizmni samarali rivojlantirish uchun jahonning yetakchi mamlakatlari tajribasiga asoslangan quyidagi strategik takliflar ishlab chiqildi: ekologik toza transportni rivojlantirish va energiya uchun samarador turizm obyektlarini qurish bo'yicha keng qamrovli dasturlarni amaliyotga tatbiq etish, barqaror turizmni samarali rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani kuchaytirish va unga tabiiy resurs obyektlari hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha majburiy talablarni kiritish, atrof-muhitni boshqarish va audit tizimi orqali, ekologik standartlarga rioya etishni ta'minlash, turizm sohasida atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan loyihalarni amalga oshirish uchun yuqori darajada tashkil etilgan idoralararo hamkorlik o'rnatish, ekologik monitoring tizimlarini joriy etish va standartlashtirish jarayonlarini takomillashtirish, ekoturizmni qo'llab-quvvatlash va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan yangi tashabbuslar hamda dasturlarni joriy etish.

Dissertatsiyaning **"Barqaror turizmni rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslari"** deb nomlangan ikkinchi bobida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik yondashuvlari, barqaror turizmni rivojlantirish usullarini takomillashtirish, barqaror turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o'rganishning uslubiy jihatlari o'rganilgan. Bu borada, muallif tomonidan taklif etilgan "Turistik so'qmoqlarni qabul qilinadigan o'zgarishlar chegarasini hisoblash" modeli asosida "Hazrati Dovud" turistik destinatsiaysining sig'imlik darajasi aniqlangan. Shu bois, "Inson resurslarini yashil boshqarish" (GHRM) konsepsiyasi asosida barqaror turizmni rivojlantirish va "Yashil maqsadlar"ning takomillashtirilgan mezonlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Barqaror turizmni rivojlantirishdagi asosiy uslubiy yondashuvlarni tadqiq qilish hamda turizmning ijtimoiy muhitga ta'sirini aniqlash maqsadida turistik destinatsiyalarning qabul qiluvchi yuklamasini hisoblash va sig'imlilik darajasini baholash bo'yicha "Turistik so'qmoqlar"ni qabul qiladigan o'zgarishlar chegarasini hisoblash modeli taklif etildi (2-rasm).



2-rasm. “Turistik so‘qmoqlar”ni qabul qiladigan o‘zgarishlar chegarasini hisoblash modeli¹⁰

Ushbu model uch bosqichli baholash tizimidan iborat bo‘lib, fizik, haqiqiy va samarali yuklama mezonlariga asoslangan.

Fizik jihatdan ruxsat etilgan yuklama (FS) – obyektning chegaralovchi omillarsiz maksimal tashrif buyuruvchilar sonini aniqlash uchun qo‘llaniladi:

$$FS = YU \times TS \times KD, \quad (1)$$

bu yerda: YU – yo‘l uzunligi; TS – metrga tushadigan tashriflar soni; KD – kunlik davomiylik (soat/kun).

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan yuklama (HS) – obyektning tashrif buyuruvchilarni qabul qilish imkoniyatini tabiiy va infratuzilmaviy cheklovlarni hisobga olgan holda aniqlashga xizmat qiladi:

$$HS = FS \times \frac{100 - FY}{100} \times \frac{100 - FE}{100} \times \frac{100 - FQ}{100}, \quad (2)$$

bu yerda: *FS* – fizik jihatdan ruxsat etilgan yuklama; *FY* – yog‘ingarchilik ta’siri; *FE* – eroziyaga moyillik; *FQ* – qiya darajasi.

Samarali jihatdan ruxsat etilgan yuklama (SS) esa hozirgi boshqaruv va ideal boshqaruv imkoniyatlari farqidan kelib chiqib hisoblanadi:

$$SS = HS \times (100 - FM)/100, \quad (3)$$

bu yerda: *HS* – haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan yuklama; *FM* – boshqaruv cheklovlari koeffitsiyenti.

Ushbu modeldan foydalanib, Samarqand shahri yaqinidagi Oqsoy qishlog‘ida joylashgan Hazrati Dovud g‘ori turistik obyektining sig‘imlilik darajasi hisoblab chiqildi. Obyektning fizik jihatdan ruxsat etilgan yuklamasi (FS) kuniga 10,0 ming tashrifchi, yiliga esa 3,0 million tashrifchini tashkil etdi. Haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan yuklama (HS) tabiiy va infratuzilmaviy cheklovlarni hisobga olgan holda kuniga 3,756 ming, yiliga 1,126 million tashrifchini tashkil etdi. Samarali jihatdan ruxsat etilgan yuklama (SS) esa boshqaruv imkoniyatlari va cheklovlar inobatga olinganda kuniga 2,554 ming, yiliga 766 ming tashrifchini qabul qilish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Biroq, hozirgi vaqtda kunlik tashrif buyuruvchilar soni 10 mingdan oshib, obyektning ruxsat etilgan sig‘imidan ancha yuqori darajaga yetmoqda. Bu esa transport va sog‘liqni saqlash infratuzilmasining yetishmovchiligi, xavfsizlik muammolari hamda tabiiy resurslarga ortiqcha yuklama tushishi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, mahalliy aholi norozilik indeksleri hisoblab chiqilib, turizm oqimining ortishi ijtimoiy va ekologik muvozanatga tahdid solayotganligi ilmiy asoslandi. Shu asosda, mahalliy aholining bezovtalik darajasini pasaytirish va turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirish bo‘yicha “Hazrati Dovud” g‘ori atrofida mahalliy aholining bezovtaligini kamaytirish modeli ishlab chiqildi. Ushbu model turistik oqimni boshqarish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ekologik va madaniy dasturlarini joriy etish, turizmning iqtisodiy manfaatlarini adolatli taqsimlash hamda mahalliy aholining ishtirokini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Barqaror turizmning samarali rivojlanishi mahalliy aholining faol ishtiroki bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning ehtiyojlarini inobatga olish, loyihalarda faolligini oshirish va iqtisodiy manfaatlarini adolatli taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash uchun qaror qabul qilish jarayonlarida mahalliy aholining ishtiroki, tenglik va shaffoflik tamoyillariga rioya qilish zaruriy omillar sifatida belgilandi.

Shu asosda ishlab chiqilgan barqaror turizm loyihalarini rivojlantirish modeli mahalliy aholining turizm boshqaruvidagi ishtirokini ta‘minlash orqali ijtimoiy tenglik, ekologik muvozanat va iqtisodiy manfaatlarini muvozanatlashtirishga

xizmat qiladi. Ushbu model mahalliy jamoani qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish, ularning manfaatlarini himoya qilish va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan turizm boshqaruvini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan. Ushbu model turizmning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, mahalliy aholi va investorlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni minimallashtirish imkonini beradi.


1-jadval

Turizm tashkilotlari uchun "Yashil mezonlar" tizimi tasnifi¹¹

Mezonlar nomi	O'lchov birligi	Indikatorlar mazmuni
Chiqindilarni boshqarish darajasi	%	Tashkilotda chiqindilarni saralash va qayta ishlash ulushi
Uglerod izi	tonna/yil, oy	Tashkilotning atmosferaga chiqarayotgan CO ₂ gazi miqdori
Energiya tejamkorligi	kvt/ishchi	Ish jarayonlarida sarflangan energiya miqdori
Suv tejamkorligi	m ³ /ishchi	Har bir xodim uchun sarflanadigan suv miqdori
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	%	Ushbu manbalardan foydalanish ulushi
Xodimlarning ekologik bilim va ko'nikmalari	%	Ekologik amaliyotlar bo'yicha o'qitilgan xodimlar ulushi
Gender tengligi	%	Erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik darajasi
Mahalliy aholi ish o'rinlari	%	Mahalliy aholidan ishga jalb qilingan xodimlar ulushi
Xodimlarning ekologik tashabbuslarda ishtiroki	%	Ekologik tashabbuslarda ishtirok etgan xodimlar soni yoki ulushi
Xodimlarning salohiyatini oshirish	son	Ekologik malaka oshirish kurslarida qatnashgan xodimlar soni
Innovatsion texnologiyalar va ekologik uskunalarga sarmoya kiritilganligi	qiymat qo'shilgan mahsulot hajmi (%)	Qiymat qo'shilgan mahsulot hajmini oshirish
Qog'oz iste'molini kamaytirish va qayta ishlash	sarf-xarajatlarni pasaytirish darajasi	Raqamli uskunalarni joriy etish
Energiya sarfi xarajatlarining qisqarishi	%	Resurs tejamkorligi orqali xarajatlarning kamayish ulushi
Raqamli texnologiyalardan foydalanish	%	Inson resurslarini boshqarishda joriy qilingan raqamli platformalar ulushi

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Barqarorlikka tezroq erishish maqsadida Inson resurslarini yashil boshqarish (GHRM) konsepsiyasi barqaror turizmni rivojlantirishda muhim strategik vosita sifatida asoslab berildi. Tadqiqot davomida GHRMning asosiy tamoyillari, turizm tashkilotlaridagi roli va amaliy qo‘llanilishining ilmiy tahlili o‘tkazildi. Ushbu yondashuv ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik mezonlari asosida tashkilot faoliyatini baholash imkoniyatini yaratib, turizm subyektlarining ekologik standartlarga moslashuvini ta‘minlashga xizmat qiladi. Taklif etilgan Inson resurslarini yashil boshqarish (GHRM) konsepsiyasiga asoslanib, turizm tashkilotlari uchun “Yashil mezonlar” tizimi taklif etildi. Ushbu mezonlar va indikatorlar tasnifi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.



3-rasm. 2022 va 2024-yillar uchun xalqaro turizm tiklanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillarning tahlili, (%)¹²

“Yashil mezonlar” tizimi turizm tashkilotlariga moliyaviy barqarorlikka erishish uchun xarajatlarni optimallashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va zamonaviy ekotexnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Ushbu tizimning amaliy qo‘llanilishi turizm tashkilotlarining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonini jadallashtirishi hamda ularning raqobatbardoshligini oshirishiga xizmat qilishini ilmiy asoslaydi.

Dissertatsiyaning “**Mamlakatimizda barqaror turizmni rivojlanish holati va tendensiyalari**” deb nomlangan uchinchi bobida xalqaro turizmni rivojlanish tendensiyalari, iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari, mamlakatimizda barqaror turizm rivojlanishining holati va turizm infratuzilmasi, barqaror turizm salohiyati va rivojlanish tendensiyasi, barqaror turizmni rivojlantirish samaradorligini baholashda ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlil qilingan.

¹² BMTning Turizm bo‘yicha ixtisoslashgan agentligi (UN Tourism) ma’lumotlari <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data&ust> 2024).

BMTning Turizm bo'yicha ixtisoslashgan agentligining (UN Tourism) dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2025-yilda xalqaro sayyohlar oqimi 2024-yilga nisbatan (1,4 milliard) 3-5%ga o'sishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayon global iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va mintaqaviy turizm imkoniyatlarini kengaytirishga sabab bo'ladi¹³. Xalqaro turizmning tiklanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili 3-rasmda keltirilgan.

Tahlillarga ko'ra, ikki yil davomida kuzatilgan o'zgarishlar turizm sohasidagi murakkabliklarni hamda ularga ta'sir etuvchi omillarning dinamikasini ko'rsatadi. Iqtisodiy muhitning ta'siri 2022-yilda 82% bo'lsa, 2024-yilda 59%gacha pasaygan, biroq hali ham muhim omil sifatida qolmoqda. Geosiyosiy omillar orasida Rossiya-Ukraina mojarosining ta'siri 31%dan 19%gacha kamaygan, biroq Yaqin Sharq mojarosi 25%ga ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa yangi xavf omillari paydo bo'layotganini bildiradi. COVID-19 pandemiyasining ta'siri 2022-yilda 21% bo'lsa, 2024-yilda 6%gacha kamaygan, bu esa sayohatga bo'lgan ishonch tiklanganini anglatadi. Transport va mehmonxona narxlarining yuqoriligi 60% darajada saqlanib qolgan, bu esa sayohatchilar uchun global muammo bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Sayohat cheklovlari va viza talablarining ta'siri 2022-yilda 33% bo'lsa, 2024-yilda 13%ga pasaygan, bu esa xalqaro sayohatni yengillashtirish bo'yicha islohotlar natijasidir. Aeroportlardagi tirbandlik va reyslarning kechikishi 2022-yilda 24% bo'lsa, 2024-yilda 15% gacha kamaygan, bu esa aviatsiya infratuzilmasining tiklanishini ko'rsatadi. Ekstremal ob-havo hodisalari ta'siri 2024-yilda 30%ni tashkil etib, sezilarli ortgan, bu esa iqlim o'zgarishining turizmga bo'lgan salbiy ta'siri kuchayib borayotganini anglatadi.

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va texnologiyalarning rivojlanishi turizmni yetakchi tarmoqqa aylantirmoqda. O'zbekiston ham turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirib, barqaror turizm konsepsiyasini ilgari surish, ekoturizm va madaniy merosga asoslangan turizmni kengaytirish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha islohotlarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekistonning turizm sohasidagi yutuqlari xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. 2023-yilda "Jahon musulmon sayohati indeksi"da mamlakat 140 davlat ichida 13-o'rinni egalladi. "Halal In Travel Awards 2023"da Xiva shahri "Yilning islom merosi turizm manzili" deb topildi, UN Tourism Bosh Assambleyasida esa Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'i "Eng yaxshi turizm qishlog'i – 2023" nominatsiyasida g'olib bo'ldi. "Lonely Planet" nashriyoti O'zbekistonni 2024-yilning "Eng yaxshi sayohat maskani" deb e'tirof etdi, "World of Statistics" esa mamlakatni sayohat qilish uchun eng yaxshi davlatlar ro'yxatiga kiritdi. Ushbu e'tiroflar O'zbekistonning xalqaro turizm bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda¹⁴. 2024-yilda e'lon qilingan Global Tinchlik Indeksi (Global Peace Index) natijalariga ko'ra,


¹³ BMTning Turizm bo'yicha ixtisoslashgan agentligi ma'lumotlari. 2024. <https://www.unwto.org/news/global-tourism-set-for-full-recovery-by-end-of-the-year-with-spending-growing-faster-than-arrivals>

¹⁴ https://uza.uz/oz/posts/2030-yilgacha-turizmni-rivojlantirish-uchun-munosib-sharoitlar-yaratiladi_570366

O‘zbekiston 146 mamlakat ichida 32-o‘rinni egallab, xavfsiz davlat sifatida o‘z mavqeini mustahkamladi¹⁵.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonga kelgan xorijiy fuqarolar soni 3,53 million kishini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 13,3%ga oshdi. Shu davrda havo transportida 655,8 ming (18,6%), temir yo‘l orqali 48,3 ming (1,4%), avtomobil transportida 5,0 ming (0,1%) sayyoh tashrif buyurgan. Sayyohlarning asosiy qismi – 2,82 million kishi (79,9%) chegarani piyoda kesib o‘tgan¹⁶.

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar sonining jami 2010-2023-yillar davomidagi o‘zgarish tendensiyasi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. 2010-2023-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar sonining o‘zgarish tendensiyasi¹⁷

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2010-2019-yillarda O‘zbekistonga kelgan turistlar soni izchil o‘sib, 2010-yildagi 975 mingdan 2019-yilda 8,278 millionga yetgan. COVID-19 pandemiyasi sabab 2020-yilda sayyohlar soni 1,504 millionga tushdi. 2022-yildan boshlab tiklanish jarayoni kuzatilib, 2022-yilda 5,233 million, 2023-yilda esa 6,263 million sayyoh tashrif buyurdi, bu esa turizm sohasining tiklanishi bilan izohlanadi.

2023-yil oktabr oyida Samarqand shahrida BMTning Turizm bo‘yicha ixtisoslashgan agentligi (UN Tourism) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi bo‘lib o‘tdi¹⁸. O‘zbekiston 2023-2027-yillarda UN Tourism Ijroiya Kengashiga a‘zo sifatida qabul qilindi¹⁹. 2024-yilda mamlakat vakillari 17 ta xalqaro turizm ko‘rgazmalarida, jumladan, WTM London, ITB Berlin, FITUR Ispaniya kabi nufuzli anjumanlarda ishtirok etmoqda. O‘zbekiston turizm infratuzilmasini rivojlantirish va sayyohlik maskanlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirmoqda. Jumladan, “Afsonalar vodiysi” (Namangan), “Amirsoy” (Bo‘stonliq) va “Zomin” rekreatsion zonasi (Jizzax) kabi

¹⁵ <https://global-relocate.com/ru/rankings/security-of-countries>

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2024-yilning yanvar-iyun oylariga doir choraklik natijalar <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-iyun>

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2010-2021-yillarda “O‘zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari” statistik byulleteni ma’lumotlari asosida muallif tomonidan i/ch.

¹⁸ BMTning Turizm bo‘yicha ixtisoslashgan agentligi (UN Tourism) ma’lumotlari.

¹⁹ <https://uzdaily.uz/en/post/53803/>

yirik loyihalar tatbiq etildi²⁰. “O‘zbekiston turizm magistrali” doirasida esa 31 ta hududda zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish rejalashtirilgan.

Barqaror turizmni rivojlantirish iqtisodiy manfaatlar bilan birga ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yo’naltirilgan murakkab jarayondir. Uning samaradorligini baholash uchun kompleks baholash usullari ishlab chiqilishi zarur bo‘lib, bu tizim turizmga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni tahlil qilib, ularning ko‘rsatkichlarini hisobga oladi. Natijalar umumlashtirilgan holda turizmning umumiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Baholash indikatorlari iqtisodiy (turizm daromadlari, YAIMdagi ulushi, sohada bandlik va investitsiyalar hajmi), ijtimoiy (turizmning mahalliy aholi daromadiga ta’siri va hamjamiyat ishtiroki) hamda ekologik (uglerod izi, suv va energiya sarfi, chiqindilar hajmi va ekologik toza transport ulushi) ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

Hisob-kitob metodologiyasiga ko‘ra, iqtisodiy samaradorlik turizm daromadlari ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi:

$$TD_u = \left(\frac{TN_d}{YAIM} \right) \times 100, \quad (4)$$

bu yerda: TD_u – turizm daromadlari ulushi (%), TN_d – turizm natijasida olingan umumiy daromad; $YAIM$ – mamlakatning yalpi ichki mahsuloti.

Investitsiyalar hajmini aniqlash maqsadida quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Bl_t = \frac{TN_d}{TI} \times 12 \quad (5)$$

bu yerda: Bl_t – turizmdan tushadigan daromadlarning investitsiyaga nisbati; TN_d – turizm natijasida olingan umumiy daromad; TI – turizm infratuzilmasiga yo’naltirilgan umumiy investitsiyalar; 12 – yildagi oylar soni.

Turizm sohasida band bo‘lganlar ulushi quyidagicha hisoblanadi:

$$TIB = \left(\frac{TIS}{UB} \right) \times 100, \quad (6)$$

bu yerda: TIB – turizm sohasida band bo‘lgan aholining umumiy bandlikdagi ulushi (%); TIS – turizm sohasida band bo‘lgan ishchilar soni; UB – mamlakatda umumiy ish bilan bandlar soni.

Ijtimoiy samaradorlikni hisoblashda mahalliy aholi ishtirokini aniqlash lozim:

$$MAI = \frac{M_{tt}}{T_t} \times 100, \quad (7)$$

bu yerda: MAI – mahalliy aholi ishtirok etgan turistik tadbirlarning umumiy tadbirlardagi ulushi (%); M_{tt} – mahalliy aholi ishtirok etgan tadbirlar soni; T_t – umumiy turistik tadbirlar soni.

Turizmning mahalliy aholi farovonligiga ta’sir darajasi turizm rivojlanishi natijasida mahalliy aholining daromadidagi o‘zgarishlarni baholash uchun ishlatiladi.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6396146>

$$TFT = \frac{Md}{TRm} \times 100, \quad (8)$$

bu yerda: TFT – turizmning mahalliy aholi daromadiga ta'siri (%); Md – turizm tufayli mahalliy aholining daromadidagi o'sish; TRm – turizm rivojlanishidan oldin mahalliy aholi daromadi.

Ekologik samaradorlikni hisoblashda uglerod izi (CO_2 emissiyasi) quyidagicha hisoblanadi:

$$U_I = \frac{T_{CO_2}}{T_S} \quad (9)$$

bu yerda: U_I – uglerod izi (kg CO_2 /turist), ya'ni har bir turist uchun atmosferaga chiqarilgan o'rtacha CO_2 miqdori; T_{CO_2} – turizm faoliyati natijasida hosil bo'lgan umumiy CO_2 emissiyasi (tonna); T_S – turistik tashriflar soni.

Yuqorida qayd etilgan T_{CO_2} – turizm faoliyati natijasida hosil bo'lgan umumiy CO_2 emissiyasi o'zining hisoblash formulasiga ega bo'lib, turli turistik faoliyatlar natijasida ajralib chiqadigan karbonat angidrid (CO_2) miqdorini o'z ichiga oladi. Bu transport, turar joy, ovqatlanish, va sayohat kabi omillarga bog'liq. T_{CO_2} – quyidagi umumiy formula yordamida hisoblanadi:

$$T_{CO_2} = \sum T_{CO_2} e^{transport} \times T_{CO_2} e^{jv} \times T_{CO_2} e^f, \quad (10)$$

bu yerda: $T_{CO_2} e^{transport}$ – transport orqali hosil bo'lgan umumiy CO_2 emissiyasi (kg yoki tonna); $T_{CO_2} e^{jv}$ – joylashtirish vositalari (mehmonxona) tomonidan chiqarilgan umumiy CO_2 emissiyasi (kg yoki tonna); $T_{CO_2} e^f$ – ovqatlanish jarayoni orqali hosil bo'lgan umumiy CO_2 emissiyasi (kg yoki tonna).


Turizm faoliyatining umumiy CO_2 emissiyasini hisoblash uchun barcha asosiy manbalarni jamlash kerak. (tahlil qilinayotgan obyektga qarab, qo'shimcha omillarni ham kiritish mumkin). Hisoblash formulasi quyidagicha ifodalanadi:

Energiya iste'moli samaradorligi:

$$EI = \frac{T_{ei}}{UE_{iq}}, \quad (11)$$

bu yerda: EI – har bir turist uchun o'rtacha energiya iste'moli (kWh/turist); T_{ei} – turizm sektorida iste'mol qilingan umumiy energiya miqdori (kWh); UE_{iq} – turistik tashriflar soni, ya'ni ma'lum bir davr mobaynida turizm hududiga tashrif buyurgan sayyohlar soni.

Hisob-kitoblar natijasida barqaror turizm samaradorligi indeksi 29,12 ni tashkil etdi. Bu esa barqaror turizm rivojlanishining hozirgi darajasi o'rtacha past ekanligini ko'rsatadi. YAIM ulushining 2,18% va investitsiyalar hajmining 1,84% bo'lishi turizmning iqtisodiyotga ta'siri yetarlicha yuqori emasligini bildiradi. Shu bilan birga, ekologik yuklamaning 30% ga teng ekani turizm sohasi atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Biroq, mahalliy aholining turizmga jalb qilinish darajaligi 40,38%ni tashkil etib, bu sohaning ijtimoiy jihatdan samarali rivojlanayotganini anglatadi.



5-rasm. “Smart tourism data system” laboratoriyasini shakllantirish mexanizmi²¹

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirish mexanizmlari va istiqbollari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida barqaror turizmni rivojlantirishda statistik ma’lumotlar eko-tizimini takomillashtirish usullari, hududiy turizm bozoriga barqarorlik tamoyillarini tatbiq etish zaruriyatidan kelib chiqib, milliy standart va sertifikatlashtirish tizimining konseptual modeli va rivojlantirish strategiyasi hamda mamlakatda barqaror turizmni samarali rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar tahlili asosida xorijiy turistlar oqimining 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari asoslangan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, barqaror turizmni baholash uchun zarur ma’lumotlarning yetishmovchiligi turizm sohasida resurslarni samarali boshqarish imkoniyatlarini cheklayotgani aniqlandi. Xususan, sayyohlar tashrifi natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilar, suv va energiya iste’moli, tabiiy hududlar va madaniy yodgorliklarga yuklama haqidagi ma’lumotlarning tizimli to‘planmagani atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror turizmni rivojlantirish bo‘yicha samarali choralarni belgilashda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida, tadqiqotda turizm tendensiyalarini tizimli baholash va statistik ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish imkonini beruvchi “Sustainable Tourism” statistik platformasini yaratish taklif etildi. Ushbu platforma “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzurida tashkil etilishi rejalashtirilgan “Smart Tourism Data System” laboratoriyasida shakllantirilishi asoslandi. Laboratoriya tashkil etish bo‘yicha uni shakllantirish mexanizmi 5-rasmda keltirilgan.

Barqaror rivojlanish tamoyillari iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularga erishish uchun ekologik standartlarni joriy etish, mas’uliyatli boshqaruvni shakllantirish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasida ekomarkirovka orqali sertifikatlash tizimini tatbiq etish sayyohlar va turistik obyektlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash hamda barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish imkonini yaratadi.

Turizmning atrof-muhitga ta’siri ortib borayotgani sababli ekologik, xavfsizlik va barqaror rivojlanishga bo‘lgan talab oshmoqda. UN-Tourism ma’lumotlariga ko‘ra, sayyohlarning 66% “yashil” turizmni afzal ko‘radi²², biroq bu holda ekologik talablarga haqiqiy rioya etishni marketing sun‘iy ta’siridan (greenwashing) ajratish muammosi mavjud. Shu bois, ekologik standartlarni rasmiy sertifikatlashtirish turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ekologik standartlar barqaror turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynab, sertifikatlash tizimlari ekologik me’yorlarning tan olinishi va muvofiqligini ta’minlaydi. Barqarorlik sertifikatlari turizm biznesini qo‘llab-quvvatlash va ekologik sifatni baholashda ahamiyatli bo‘lib, ular davlat yoki xususiy tashabbus asosida joriy etiladi. Dastlabki ekologik standart 1978-yilda Germaniyada tatbiq etilib, keyinchalik Kanada, AQSh va boshqa davlatlarda ham keng tarqaldi.

²² UNWTO. Voluntary Initiatives for Sustainable Tourism: Worldwide Inventory and Comparative Analysis of 104 Eco-labels, Awards, and Self-regulation Commitments in Tourism. Madrid: World Tourism Organization. 2002.

Xalqaro tajriba ko'rsatishicha, The Green Key (Daniya), Green Globe (AQSh), EarthCheck (Avstraliya) va Travelife (Buyuk Britaniya) kabi sertifikatlashtirish tizimlari turizmning ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Green Key mehmonxonalar va turistik obyektlar uchun eng keng tarqalgan ekologik sertifikat bo'lib, energiyani tejash va suv sarfini kamaytirishga, Green Globe esa turizm biznesining ekologik boshqaruvga o'tishiga yo'naltirilgan. EarthCheck iqlim o'zgarishi va resurs tejamkorligini baholashda yetakchi tizim, Travelife esa mehmonxonalar va turizm operatorlarining ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini baholaydi.



6-rasm. “Yashil sayohat” Green travel milliy standart va sertifikatlashtirish tizimining konseptual modeli²³

²³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimizda joylashtirish vositalarida barqarorlik sertifikatlash tizimi yetarlicha shakllanmagan, bu esa ekologik standartlarga muvofiqlikni ta‘minlashda tizimli muammolar mavjudligini tasdiqlaydi va sohada barqaror rivojlanish tamoyillarini keng joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu asosda joylashtirish vositalarida barqarorlik tamoyillarini izchil joriy etish uchun “Yashil sayohat” (Green Travel) milliy standart va sertifikatlashtirish tizimining konseptual modeli ishlab chiqildi (6-rasm).

Modelni amaliyotga tatbiq etish uchun “Yashil sayohat” (Green Travel) milliy standart va sertifikatlashtirish tizimini rivojlantirish strategiyasi taklif etildi. Strategiya barqaror turizm sertifikatlash tizimini shakllantirish, infratuzilmani ekologik talablar asosida modernizatsiya qilish va sertifikatlash jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Strategiyani amalga oshirish natijasida karbon izi kamayadi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish rag‘batlantiriladi, turizm obyektlarining ekologik reytingi shakllanadi, tabiiy va madaniy meros muhofaza qilinadi hamda O‘zbekistonning xalqaro turizm imiji mustahkamlanadi.

Turizmning barqaror rivojlanishi faqat iqtisodiy daromad bilan cheklanmay, balki tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik yuklamani kamaytirish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish kabi muhim omillarni ham qamrab oladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda barqaror turizm talabining shakllanishiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar 2000-2023-yillar davomida dinamik panel ma‘lumotlar metodologiyasi yordamida baholandi.

Tahlil jarayonida barqaror turizmning rivojlanish dinamikasi sayyohlar sonining ekologik iz indeksiga nisbati orqali o‘lchandi. Ushbu yondashuv turizm sohasining ekologik ta‘sirini aniqlash va uning barqaror rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Turizm talabini shakllantiruvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida yalpi ichki mahsulot (YAIM) o‘sish sur‘ati, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushi, ichimlik suvi ta‘minoti darajasi, suv resurslari hajmi, tog‘li hududlar ulushi, karbon dioksid (CO₂) emissiyalari, inson taraqqiyoti indeksi (HDI), hayot sifati indeksi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi kabi indikatorlar tanlab olindi.

Statik panel regressiya modeli asosida ushbu omillarning turizm talabiga ta‘siri tahlil qilindi. Panel ma‘lumotlar tahlili vaqt va hududiy farqlarni hisobga olish imkonini berib, turizm talabining shakllanish omillarini aniq baholashga yordam berdi.

Statik panel regressiya modelining umumiy shakli quyidagicha taqdim etiladi:

$$\begin{aligned} \lnSTDIt = & \beta_0 + \beta_1 \ln GrowthJt + \beta_2 RenenergyJt + \beta_3 DrinkingWaterJt \\ & + \beta_4 WaterResourcesJt + \beta_5 MountainAreaJt + \beta_6 \ln CO2It + \beta_7 HDIJt + \\ & \beta_8 LifeladderJt + \beta_9 SocialHelpJt + \partial I + \lambda t + \mu It \end{aligned} \quad (12)$$

Tadqiqotda tabiiy logarifm (ln) funksiyasi qo‘llanilib, iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi no-chiziqli bog‘liqlik chiziqli shaklga keltirildi. Modelning ishonchliligini tekshirish maqsadida doimiy (FE) va tasodifiy (RE) effektlar Hausman testi yordamida solishtirildi. Test natijalari asosida doimiy effektlar modeli tanlandi (2-jadval).

2-jadval

Barqaror turizm talabiga ta'sir qiluvchi omillarning fiksirlangan (FE) va tasodifiy (RE) ta'sir modellari natijalari²⁴

Ko'rsatkichlar	(1) FE	(2) RE
Growth _{Jt}	0.011 (0.008)	0.002 (0.009)
Renenergy _{Jt}	0.058** (0.013)	0.030*** (0.010)
DrinkingWater _{Jt}	-0.030** (0.014)	0.005 (0.014)
WaterResources _{Jt}	0.017 (0.056)	0.040** (0.019)
MountainArea _{Jt}	-0.208*** (0.026)	-0.027 (0.018)
lnCO2 _{Jt}	2.656*** (0.296)	1.129*** (0.219)
HDI _{Jt}	19.357*** (7.083)	-25.593*** (5.072)
8Lifeladder _{Jt}	-0.233* (0.124)	-0.042 (0.120)
SocialHelp _{Jt}	1.374*** (0.419)	0.264 (0.411)
Const	-13.053** (5.290)	17.891*** (3.308)
Obs.	2772	2772
Hausman tests	86.47 (0.000)	
Pseudo R ²	0.76	0.74
Country-pair effects	yes	yes
Year effects	yes	yes

*Manba: Muallif tomonidan STATA dasturida amalga oshirilgan hisob-kitoblar. Izoh: RE - tasodifiy ta'sir, FE - fiksirlangan ta'sir. Qavs ichidagi qiymatlar robust standart xatoliklarni ifodalaydi; jadvalda yil va mamlakatlar juftliklariga xos bo'lgan fiksirlangan ta'sirlar aks ettirilmagan. Muhimlik darajalari: ***p < 0.01; **p < 0.05; *p < 0.1.*

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda barqaror turizm talabining shakllanishiga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va inson taraqqiyoti indeksining oshishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, CO₂ emissiyalari turizm talabini dastlab oshirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda ekologik barqarorlikni buzib, salbiy oqibatlariga olib kelishi aniqlangan. Ichimlik suvi ta'minotining yetishmovchiligi va tog' hududlaridagi bioxilma-xillikning kamayishi barqaror turizmni rivojlantirishga salbiy ta'sir etmoqda. YAIM o'sish sur'ati, hayot sifati indeksi, suv resurslari hajmi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash omillari esa barqaror turizm talabiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Ushbu tahlil barqaror turizmni rivojlantirishda iqtisodiy o'sishdan ko'ra ekologik va ijtimoiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatib, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash zarurligini asoslaydi.

²⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Biroq, turizm sohasining rivojlanishini to'liq baholash uchun faqat barqaror turizm talabini o'rganish yetarli emas. Chunki turistik oqimlar hajmi, ya'ni mamlakatga kelayotgan sayyohlar soni ham barqaror turizmning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ikkinchi tahlilda O'zbekistonga kelgan turistlar soniga ta'sir etuvchi omillarni baholashga e'tibor qaratildi. Ushbu tahlil turizm talabining shakllanish jarayonini yanada chuqurroq yoritish va ilgari o'rganilgan omillarning real turistik oqimlarga ta'sirini aniqroq tushunish maqsadini ko'zlaydi.


Tadqiqot doirasida barqaror turizmga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, YaIM o'sish sur'ati, iste'mol narxlari indeksi, CO₂ chiqindilari, inson taraqqiyoti indeksi, qayta tiklanuvchi energiya iste'moli, jamoat transportidan foydalanish darajasi, hayot sifati indeksi, suv resurslari va barqaror taraqqiyot maqsadlari kabi 13 ta omil aniqlangan. O'zbekistonda turizm rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'p omilli chiziqli fiksirlangan effektlar modellariga asoslangan bo'lsa-da, turizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanishi yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, tadqiqotda barqaror turizmga ta'sir etuvchi omillar ko'p omilli chiziqli fiksirlangan effektlar modeli yordamida tahlil qilindi.

Bundan tashqari, 2024-2030-yillarga mo'ljallangan barqaror turizm prognozlarini ARIMA modeli asosida ishlab chiqildi. Ma'lumotlarning statsionarligi Augmented Dickey-Fuller (ADF) testi orqali tekshirilib, birinchi tartibli differensiyalash (d=1) natijasida vaqt qatorining o'rtacha qiymati va dispersiyasi barqarorlashtirildi. AutoCorrelation Function (ACF) va Partial AutoCorrelation Function (PACF) grafiklari yordamida AR (p) va MA (q) komponentlari aniqlanib, optimal model Akaike (AIC) va Bayesiy (BIC) informatsion mezonlari asosida tanlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, ARIMA(2,1,2) modeli eng mos variant sifatida baholandi va ushbu model ma'lumotlarga asoslanib sinovdan o'tkazildi. Model ko'rinishi quyidagicha:

$$Y_t = c + \varphi_1 Y_{\{t-1\}} + \varphi_2 Y_{\{t-2\}} + \theta_1 \varepsilon_{\{t-1\}} + \theta_2 \varepsilon_{\{t-2\}} + \varepsilon_t \quad (13)$$

Hozirgi vaqtda bashorat qilish va prognozlash jarayonida turli axborot manbalari hamda bashorat metodologiyalari qo'llaniladi. Ushbu yondashuvlardan biri ekstropolyatsiya usuli bo'lib, u ma'lumotlarning mavjud tendensiyalarini kelajakda davom ettirishga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadda keluvchi xorijiy fuqarolar sonining 2025-2030-yillardagi prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash uchun eksponensial model tanlandi va ushbu yondashuv eng maqbul variant sifatida baholandi.

Demak, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yaqin besh yil ichida mamlakatimizga turistik maqsadda tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar oqimi barqaror o'sish tendensiyasini saqlab qolishi kutilmoqda. Bu prognoz turizm sohasining rivojlanish sur'atlari ijobiy dinamikaga ega bo'lishini tasdiqlaydi. Istiqbollu tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatimizga turistik maqsadlarda tashrif (7-rasm).



7-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga kiruvchi turistlar oqimining 2025-2030-yillardagi prognoz parametrlari²⁵

Ushbu grafikda 2000-2030-yillar oralig‘ida O‘zbekistonga kiruvchi turistlar hajmining dinamikasi asosida 2025-2030-yillar uchun prognozi aks ettirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2000-2015-yillarda turizm hajmi bosqichma-bosqich o‘shib borgan, 2015-yildan boshlab esa sezilarli o‘shish kuzatilgan. 2019-yilda turistlar soni 6,7 millionga yetgan bo‘lsa, 2020-yilda pandemiya ta’sirida keskin pasayib, 1,5 millionga tushgan. 2025-yilda turistlar soni 8,0 millionga, 2027-yilda 9,5 millionga, 2030-yilda esa 10 millionga yetishi kutilmoqda. Umuman olganda, 2020-yilgi inqirozdan keyin turizm hajmi tez sur’atda o‘shib, 2030-yilga kelib yuqori barqaror darajaga erishishi prognoz qilinmoqda.

XULOSA

Olib borilgan dissertatsiya tadqiqoti natijasida quyidagi ilmiy xulosa, takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni rivojlantirish xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “yashil iqtisodiyot” va “barqaror turizm” kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi.

2. Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizm rivojlanishining ekologik resurslardan samarali foydalanish, madaniy merosni asrash, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda mahalliy jamoalarning ijtimoiy farovonligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, qashshoqlikni kamaytirish va qonunchilik va normativ

²⁵ Statistika ma’lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblangan

talablarni bajarish hamda turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirish tamoyillari ishlab chiqildi.

3. Barqaror turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, tashkiliy va huquqiy tarkibiy elementlarni o'z ichiga olgan kompleks tizim ishlab chiqildi. Ushbu tizim eko-turizm dasturlari, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, "yashil" infratuzilma, barqaror turizm ta'lim dasturlari va mahalliy jamoalar ishtirokini kengaytirish kabi mexanizmlarni o'z ichiga qamrab olib, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy manfaatdorlik darajasini oshirish imkonini beradi.

4. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha ekoturizm va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza transport va energiya samarador turizm obyektlarini qurish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha majburiy talablarni kiritish, ekologik standartlarga rioya etishni ta'minlash, ekologik monitoring tizimlarini joriy etish, turistik oqimni boshqarish, "yashil" mehmonxonalar qurish, ekoturizm sohasida "Green Globe 21" xalqaro sertifikatlash dasturi doirasida ekologik va barqaror turizmni rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqib, barqaror turizmning muhim yo'nalishlari bo'yicha ekologik standartlarni joriy etish hamda ekoturizmni qo'llab-quvvatlash va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan yangi tashabbuslar hamda dasturlarni joriy etish zarurligi taklif qilindi.

5. Barqaror turizmni rivojlantirishdagi asosiy uslubiy yondashuvlarni tadqiq qilish hamda turizmning ijtimoiy muhitga ta'sirini aniqlash maqsadida turistik destinasiyalarning qabul qiluvchi yuklamasini hisoblash va sig'imlilik darajasini baholash bo'yicha "Turistik so'qmoqlar"ni qabul qiladigan o'zgarishlar chegarasini hisoblash modeli ishlab chiqildi.

6. "Turistik so'qmoqlarni qabul qilinadigan o'zgarishlar chegarasini hisoblash modeli" asosida Samarqand shahri yaqinidagi Oqsoy qishlog'ida joylashgan Hazrati Dovud g'ori turistik obyektining sig'imlilik darajasi hisoblab chiqildi. Obyektning fizik jihatdan ruxsat etilgan yuklamasi (FS) kuniga 10,0 ming tashrifchi, yiliga esa 3,0 million tashrifchini tashkil etdi. Haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan yuklama (HS) tabiiy va infratuzilmaviy cheklovlarni hisobga olgan holda kuniga 3,756 ming, yiliga 1,126 million tashrifchini tashkil etdi. Samarali jihatdan ruxsat etilgan yuklama (SS) esa boshqaruv imkoniyatlari va cheklovlar inobatga olinganda kuniga 2,554 ming, yiliga 766 ming tashrifchini qabul qilish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi.

7. Tadqiqot davomida Samarqand viloyati, Oqsoy qishlog'idagi Hazrati Dovud g'ori hududida barqaror turizmni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Ushbu hududda eko-mehmonxona va turistik infratuzilma qurish loyihasi uchun Delfi usuli asosida ekspertlar fikri o'rganilib, ekologik va ijtimoiy jihatdan maqbul yechimlar taklif etildi. Loyiha doirasida turizm infratuzilmasining atrof-muhitga

ta'siri baholanib, yo'l kengligi (4 m), mehmonxona sig'imi (80-100 kishi), mehmonxona balandligi (2 qavat), tabiiy va mahalliy materiallardan foydalanish (75%), qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (89.7%), suvni tejash tizimlarini joriy qilish (83,3%) va mahalliy fermerlar mahsulotlarini qo'llash (75%) bo'yicha optimal qarorlar shakllantirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur turizm loyihasi hududning ekologik barqarorligini ta'minlash, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va turistlar oqimini samarali boshqarish uchun muhim strategik yo'nalishi dalillangan.

8. Inson resurslarini yashil boshqarish (GHRM) konsepsiyasi amaliyotlarining barqaror turizm rivojlanishiga ta'siri tahlil qilindi. Inson resurslarini yashil boshqarish konsepsiyasi asosida resurslardan oqilona foydalanish, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, atrof-muhit bilan uyg'unlikni ta'minlash hamda barqaror turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan "Yashil maqsadlar"ning takomillashtirilgan mezonlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

9. Barqaror turizm samaradorligini aniqlash uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy mezonlar asosida baholash tizimi ishlab chiqildi. Tahlillar natijasida barqaror turizm samaradorligi indeksi 29,12ga teng ekanligi aniqlandi, bu esa turizm sohasi rivojlanishining o'rtacha past darajada ekanligini ko'rsatdi. YAIM ulushining 2,18%, investitsiyalar hajmining 1,84% bo'lishi turizmning iqtisodiyotga ta'siri yetarlicha yuqori emasligini aniqlandi. Shu bilan birga, ekologik yuklama 30%ga teng bo'lib, turizm sohasi atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Mahalliy aholining turizmga jalb qilinish darajasi 40,38%ni tashkil etib, bu sohaning ijtimoiy jihatdan nisbatan samarali rivojlanayotganini asoslab berildi.

10. Turizm sohasida axborot-analitik bazani shakllantirish maqsadida "Smart Tourism Data System" laboratoriyasini tashkil etish va uning negizida "Sustainable Tourism" statistik platformasini yaratish taklif etildi. Platformaning joriy etilishi statistik ma'lumotlarning aniqligi va tezkorligini oshirish bilan birga, barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini 15%ga oshirishga xizmat qiladi.

11. O'zbekistonda barqarorlik sertifikatlash tizimi yetarli darajada shakllanmagani aniqlanib, uni takomillashtirish maqsadida "Yashil Sayohat" milliy standart va sertifikatlashtirish tizimi konseptual modeli ishlab chiqildi hamda uning amalga oshirish strategiyasi taklif etildi. Strategiyada taklif qilingan chora-tadbirlar asosida ko'zlagan maqsadlarni joriy etilishi natijasida hududlarda barqaror turizm rivojlanishi jadallashib, yashil iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq ekosertifikatlash tizimi takomillashadi hamda turistik obyektlarda ekologik standartlarga rioya qilish samaradorligi 12%ga oshishi dalillandi.

12. Iqtisodiy-matematik usullar asosida ko'p omilli ekonometrik modellashtirish ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning rivojlanish qonuniyatlarini modellar ko'rinishida aniqlash hamda ta'sir etuvchi omillarni boshqarish orqali istiqbolli tahlilni amalga oshirish mumkin. Tadqiqot natijalari asosida mamlakatimizda

barqaror turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi hamda 2030-yilga qadar xorijiy turistlar oqimi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Prognoz natijalariga ko'ra, ushbu davrga kelib xorijiy sayyohlar sonining 30 foizga oshishi dalillandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 33/01.02.2022.1.145.01 01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО
НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

МАНСУРОВА НАРГИЗА ШАМСИДИНОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ
ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ УСТОЙЧИВОГО ТУРИЗМА В
УСЛОВИЯХ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ**

08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc)

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под регистрационным номером B2024.4.DSc/Iqt812

Диссертация выполнена в Международном университете туризма и культурного наследия “Шелковый путь”.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.univ-silkroad.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный консультант: **Арабов Нурали Уралович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Абдурахмонов Каландар Хаджаевич**
академик Академии наук Республики Узбекистан, доктор экономических наук, профессор

Хамидов Обиджон Хафизович
доктор экономических наук, профессор

Мирзаев Абдуллажон Топилович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «26» апреля 2025 года в 10:00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней при Международном университете туризма и культурного наследия «Шёлковый путь» за номером DSc.33/01.02.2022.I.145.01. Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 17. Тел: (998 80) 725-89-07; Факс:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Международного университета туризма и культурного наследия “Шелковый путь” (зарегистрирована под номером 27). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 17, Тел.: (99866) 240-67-68; Факс: (99866) 240-67-68, электронная почта: info@univ-silkroad.uz.

Автореферат диссертации разослан «07» апреля 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 07 от «27» апреля 2025 года.).

А.А.Эштаев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

Х.И.Турдибеков

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней,
к.э.н., доцент

Б.Ш. Сафаров

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора экономических наук(DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в условиях зеленой экономики туризм стал одной из ведущих отраслей, оказывающих влияние на социальное, экономическое и экологическое развитие общества. Согласно данным Всемирной туристской организации (UN Tourism), «в 2024 году туристическая отрасль создала дополнительно 27,4 миллиона новых рабочих мест, обеспечив в общей сложности около 348 миллионов рабочих мест по всему миру. Зарегистрировано 1,4 миллиарда международных туристов, а экспортные доходы от туризма составили 1,9 трлн долларов США»²⁶. Кроме того, «вклад туризма в валовой внутренний продукт (ВВП) в 2024 году достиг 11,1 трлн долларов США, что составляет 10 % мирового ВВП»²⁷. Эти показатели отражают влияние туристических дестинаций на экологическую ситуацию, устойчивый экономический рост, а также социальные изменения в процессе глобального устойчивого развития туризма. В связи с этим тенденция к решению экологических проблем в рамках развития устойчивого туризма не только создает новые возможности для туристов, но и приобретает особую актуальность в стимулировании экономического роста регионов.

В мире в условиях зеленой экономики в целях обеспечения устойчивого развития туризма в регионах, обладающих туристическим потенциалом ведутся ряд научных исследований, направленных на совершенствование социально-экономических принципов обеспечения устойчивого развития туристических регионов, разработку моделей, соответствующих экологическим требованиям, а также совершенствование методологии защиты интересов местного населения. В данном направлении особое внимание уделяется определению ключевых направлений развития устойчивого туризма, обоснованию методологических подходов, разработке стратегий устойчивости для субъектов отрасли, совершенствованию методических основ экосертификации туристических продуктов и услуг, созданию новых туристических маршрутов, увеличению количества туристических троп в рекреационных зонах, а также внедрению электронной платформы, позволяющей получать статистические данные по туристической индустрии в режиме реального времени, и прогнозированию перспективных показателей с использованием эконометрических моделей.

В Новом Узбекистане реализуются целевые программы и мероприятия, направленные на эффективное развитие устойчивого туризма за счет ускоренного развития зеленой экономики, кардинального повышения уровня прозрачности в данной сфере в соответствии с передовыми международными стандартами, а также рационального использования имеющихся ресурсов страны. «Мы объявили 2025 год в нашей стране Годом охраны окружающей

²⁶ UN-Tourism. Всемирный туристический барометр. 2024, from <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data#>

²⁷World Travel & Tourism Council (WTTC). (n.d.). Economic Impact Research. 2024, from <https://wtcc.org/research/economic-impact>

среды и «зеленой экономики». Наша основная цель — создать систему, основанную на балансе между человеком и природой»²⁸, «необходимо создать 72 прибрежные зоны отдыха, 154 круглосуточные туристические и гастрономические улицы, модернизировать 62 парка отдыха, а также построить 364 придорожных и других сервисных объектов»²⁹. Выполнение данных задач требует эффективного развития устойчивого туризма в условиях перехода к зеленой экономике, разработки моделей туризма, соответствующих экологическим требованиям, совершенствования методов их оценки, создания инфраструктуры устойчивого туризма в регионах, диверсификации туристических и гостиничных услуг в соответствии с экологическими стандартами. Кроме того, необходимо обоснование методов внедрения экосертификатов и экомаркировок на основе международного опыта, налаживание системы обмена статистической информацией, расчет предельных изменений, допустимых для туристических троп, а также проведение научных исследований по разработке перспективных параметров устойчивого развития туризма с использованием эконометрических методов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан в данной сфере, включая: Указы Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии Узбекистан – 2030», от 12 января 2024 года № УП-9 «О мерах по резкому увеличению потока иностранных туристов в Республику и дальнейшему ускорению внутреннего туризма», Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 5 января 2019 года № ПП-4095 «О мерах по ускоренному развитию туристической отрасли», от 4 октября 2019 года № ПП-4477 «Об утверждении стратегии перехода Республики Узбекистан к «зеленой» экономике на 2019–2030 годы», от 2 декабря 2022 года № ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к «зеленой» экономике до 2030 года», от 26 апреля 2023 года № ПП-135 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристического потенциала Республики и увеличению числа местных и иностранных туристов», 12 января 2024 года № ПП-21 «О мерах по ускоренному развитию экологического туризма в Республике Узбекистан», от 18 июля 2024 года № ПП-269 «О мерах по совершенствованию системы подготовки кадров в сфере туризма». Кроме того, исследование учитывает другие нормативно-правовые документы, связанные с данной сферой³⁰.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие

²⁸ Поздравление Президента Республики Узбекистан народу Узбекистана с Новым 2025 годом (от 1 января 2025 года) / <https://president.uz/uz/lists/view/7799>

²⁹ Обсуждены меры по развитию сферы услуг — Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2025 года / <https://president.uz/uz/lists/view/7863>

³⁰ <https://lex.uz> – Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

